

## YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI SHAKLLANISHIDA TURK ADABIYOTINING TA'SIRI

**Sarvarbek Tuliboyev,**  
Termiz davlat universiteti  
o'zbek adabiyotshunosligi  
kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** XX asrda O'zbek she'riyatining yuz yillik tarixida yangi davr boshlandi. O'tgan asr boshlarida yangi o'zbek adabiyotining rivojlanishi albatta, oson kechmadi. Yangilangan she'riyatning dastlabki namunalari 1920-yillarda paydo bo'la boshladi. Yangicha uslubni rivojlantirish shu davr ijodkorlarining zimmasiga tushdi. Qolaversa, asr boshida vujudga kelgan adabiy jarayon, yangi o'zbek adabiyoti rivojida qardosh xalqlar adabiyoti, jumladan, turk adabiyotining ta'siri sezilarli bo'lgan. Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatining shakllanishida turk adabiyotining ta'siri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Jadid, she'riyat, Cho'lpon, Fitrat, Rizo Tavfiq, barmoq vazni, til, uslub.

**Annotatsion.** A new era began in the century-long history of Uzbek poetry in the 20th century. The development of new Uzbek literature at the beginning of the last century was certainly not easy. The initial examples of the renewed poetry began to appear in the 1920s. The development of the new style fell on the shoulders of the creators of this era. However, at the beginning of the century, the literary process that emerged, the influence of the literature of fraternal peoples, including Turkish literature, was noticeable in the development of new Uzbek literature. This article discusses the influence of Turkish literature on the formation of new Uzbek poetry.

**Keywords:** Jadid, poetry, Cholpon, Fitrat, Rizo Tavfiq, finger rhythm, language, style.

**Аннотация.** В XX веке началась новая эра в столетней истории узбекской поэзии. Развитие новой узбекской литературы в начале прошлого века, безусловно, не было легким. Первые образцы обновленной поэзии начали появляться в 1920-х годах. Развитие нового стиля легло на плечи творцов этой эпохи. Однако, в начале века, в процессе формирования новой узбекской литературы, было заметно влияние литературы братских народов, включая турецкую литературу. В этой статье говорится о влиянии турецкой литературы на формирование новой узбекской поэзии.

**Ключевые слова:** Джадид, поэзия, Чолпон, Фитрат, Ризо Тавфик, ритм палса, язык, стил.

O'tgan asrning boshlarida Abdulhamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat adabiyotimizda g'oya va mazmun, shuningdek, til, uslub, vazn va san'at masalalari bo'yicha izlanishlar qilib, eng dastlabki namunalarni o'z ijodlari namunasida ko'rsatib bera boshladilar. Ular she'riyatda "vazn", "qofiya", "shakl" xususida so'z yuritishar ekan, bu borada o'zlarigacha bo'lgan ijodkorlar tomonidan amalga oshirilgan ishlardan, qisqa qilib aytganda adabiyotdan endi qoniqmas edilar. Chunki, bu paytda ijodkorlar dunyo adabiyotida bahramand bo'la boshladilar. Adabiyotning cheksiz qudratini teran his qila boshladilar. Cho'lpon o'zining "Buyuk Hindi" maqolasida yangiliklarga ehtiyoj naqadar ekanligini shunday ifodalaydi:

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“...O‘zimning yo‘lsizlig‘imdan bir oz so‘zlab o‘tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o‘qiymen: bir xil, bir xil, bir xil!” [1:7-8].

Uzoq yillik tarixga ega o‘zbek adabiyoti boy merosga ega. Uning qat-qatida ming-minglab ma‘naviyat xazinalari yashirin. Cho‘lpon bularni inkor qilmoqchi emas. Lekin, hammasi bir xil. Shoir ana shu bir xillikdan ezilib, yangilik istaydi. U izlagan yangiliklar ham yo‘q emas.

“Ko‘ngil boshqa narsa yaigilik qidiradir: Botu, G‘ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqinboylarni o‘qiymen, quvontiradir xolos! Ular mening uchun yong‘on chiroqlar bo‘lsa ham mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy, Hakimzodalarni o‘qumaymen, o‘qumaymen, meni shu holg‘a solg‘on o‘shalar!..” [1:7-8]

Demak, ko‘rish mumkinki, Botu, G‘ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboy singari iste‘dodlar ijodida allaqachon yangilik nafasi sezilib qolgan.

Cho‘lpon o‘z adabiy-tanqidiy qarashlarida “Yurak yangiliklarni qidiraypti” der ekan, davrning yana bir uyg‘oq, hurfikr farzandi Fitrat “Adabiyot qoidalari”da turk she‘riyatining yangilanishi, taqlidchilikdan ozod bo‘lishi, she‘riyatga yangi nafas, yangi aniqlanishlar kerakligini ta‘kidlaydi.

Bu davr ijodkorlari asarlarida o‘zbek she‘riyatidagi yangiliklarga bo‘lgan ehtiyoj aniq ko‘rinadi. Shu davr she‘riyatida ijodkorlar asarlarida zamonaviy uslubning o‘ziga xos shakli paydo bo‘la boshladi.

Atoqli cho‘lponshunos olim N.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotlarida Cho‘lpon badiiy tafakkur olamiga usmonli turk adabiyotining ta‘siri kuchli bo‘lganligini ta‘kidlaydi [6:12].

Haqiqatdan ham, olimning ta‘kidida yetarlicha asos bor. Chunki, Cho‘lpon “Ulug‘ Hindi” maqolasida Sharq mumtoz poetikasidan ta‘sirlangan holda, davr ruhi aks etgan usmonli adabiyotini ham e‘tirof etar ekan, “Nomiq Kamoldin Alif Sayfiyga dovur usmonli adabiyotini o‘qiymen: yo ortiq yangilik, g‘arblik, yo sharqchilik! Faqat usmonlichadan Rizo Tavfiqning ba‘zi bir yangi shakl bilan eski ruhda aytgan so‘fiylarcha she‘rlarini o‘qiymen; shularga durustgina qonamen: undan keyin Yahyo Kamolning “Sa‘dobod” ruhidagi ba‘zi narsalari. Faqat ular shu qadar ozki...” [7:16] deb ta‘kidlaydi.

Atoqli munaqqid Vadud Mahmud yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishida turk adabiyotining ta‘siri haqida dastlabki fikrlarni bildirar ekan, “Bizda yangi adabiyot Turkiya adabiyotining umumiy sajiyasi mushtarakdir. Ruhda va shaklda Turkiston, Qafqoziyo, Qrim doimo Turkiyaga ergashadur. Bu ham tabiiydir. Chunki avvalan til mushtarakdir, so‘ngra tarixiy madaniyat mushtarakdir...” deydi. [8:82]



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Cho‘lponshunos olim, Normat Yo‘ldoshev Cho‘lpon ijodida usmonli turk adabiyotining ta‘siri haqida batafsil so‘z yuritarkan, “XX asrning 20-yillari O‘zbekiston adabiy harakatchiligida faol ishtirok etgan Cho‘lpon Fitrat singari Istanbul tahsilini olmagan bo‘lsa-da turk tarixi, adabiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan”-deb ta‘kidlaydi va “Cho‘lpon ko‘proq mutaassir bo‘lgan turk shoirlari” sifatida Tavfiq Fikrat va Nomiq Kamolni misol keltiradi. [6:12]

Donishmand, faylasuf shoir sifatida tanilgan Tavfiq Fikrat, ingliz, fransuz, ibroniy (ivrit), fors, arab, ispan, rum-yunon, armani kabi qator tillarni chuqur egallagan. Juda ko‘plab fanlardan teran xabardor bo‘lib, Sharq va G‘arb madaniyatini birday keng egallagan. Ushbu donishmand shoirdan ta‘sirlanganligini Cho‘lponning o‘zi ham ta‘kidlar ekan, “Usmonli adabiyotini oz-moz o‘quganlar, uning bilan bir daraja oshno bo‘lganlardan qaysi birisi bu ismni bilmaydi, qaysi birisi muni tanimaydi,—deydi. “Usmonlilarning “adabiyoti jadida” (yangi adabiyot)chilarining pir va ustoz bo‘lgan Tavfiq Fikratbek butun yangi nasl turklarning yuraklarina eng go‘zal, nafis va latif she‘r buketlari qadamishdir. Uning keng xayoli ravon (tez) va yengil ifodasi kimni, qaysi bir she‘r va adabiyot muhibini tasxir etmas? Xususan uning “Rubobi shikasta” (siniq dutor)si, undagi baland va latif yo‘llar naqadar jozibali va zavqli narsalardir!...” [11:10]

Cho‘lpon Tavfiq Fikrat vafoti munosabati bilan usmonli turkchada yozgan “Fikratning qabrinda” marsiyasida ulug‘ turk shoirini xotirlar ekan, uning qabri oldida xayolan tiz cho‘kib, “o‘z murodiga yetish”ni, bukun ko‘ngil bermoqlik uchun kelganligini ta‘kidlaydi:

Yoding o‘lum kabi bir sir mubham  
Nash’a shu dolli bu his ism.  
Ruhimda na fusun aylading ilhom  
Bu kun senga ko‘ngul vermaya keldim! [11:10]

*(Yoding o‘lim kabi bir sirri mubham!..  
Sevmoq nash’asimi bu hissi alam?..  
Ruhimga ne afsun aylading, bilmam...  
Bu kun senga ko‘ngil bergani keldim!..)*

Shuningdek, Cho‘lponning tanazzulga yuz tutgan millat iztiroblari aks etgan ko‘pgina she‘rlarida Tavfiq Fikrat ijodi, ayniqsa “Tarixi qadim” asarining ta‘siri yaqqol seziladi:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz, tez so‘yla,  
Otalarning tarixdagi xatosin;  
Shul xatodan osug‘lanib yovlarning,

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

El ko‘ksida surgan ishrat, safosin. [12:34]

Shu o‘rinda Fitratning “Mirrix yulduziga” she‘rini eslash kifoya. Unda ham muallif millatning tubanlashib ketganligi, jaholat botqog‘iga botganlik sabablarini ochiq ifodalaydi:

Bormi senda bir o‘lkani yondirib,  
O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar.  
Bormi senda qorin-qursoq yo‘lida  
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar? [15:36,37]

Cho‘lpon ham xuddi Fitrat singari yulduzlardan haqiqatni izlaydi. Ammo, Fitratdan farqli o‘laroq, yulduzdan ritorik so‘roqlar bilan emas, asl haqiqatlarni o‘zi bayon etar ekan, go‘zal yulduzdan ham ushbu haqiqatlarni boricha oshkor etishni, bu millat azaldan qudratli bo‘lganligi, uning shonli borligi, mard erlari vatan uchun jon berganligini ochiq bayon etishni so‘raydi:

So‘zla, anglat o‘tgandagi turmushning  
Butun qonlik, shonlik, jonlik yerlarin.  
Ko‘z oldimda jilvalantir yurt uchun  
Jonlar berib, qonlar to‘kkan erlarin.

Tavfiq Fikrat ham “Anato‘lu” she‘rida turkiylarning shonli o‘tmishi haqida so‘z yuritar ekan, qanchadan-qancha shohlar turkiylarga xizmat qilganligi, xirojlar to‘laganligi, ne-ne g‘oziyalar yurt so‘rab o‘tganini eslaydi:

Qancha g‘oziy bunda kelib-kechdilar,  
U soylardan obdast olib ichdilar.  
Mamlakatlar fath etdilar, ko‘chdilar,  
Eranlarning tuprog‘idir u ellar.

Yoki, Cho‘lponning “Qo‘zg‘olish” she‘ridagi isyonkorlik, erkka tashnalik ruhi va ohangida ham Tavfiq Fikrat ijodining “ta‘siri”ni sezish mumkin:

Ay! Sen meni haqir ko‘rgan, tuban degan afandi!  
Ay! Ustimda bir umrga xo‘ja bo‘lmoq istagan,  
Ay! Bo‘ynimga kishan solib, halokatga sudragan,  
Ko‘zlaringni zaharlatib o‘ynatmag‘il, bas endi!!

Tavfiq Fikrat ham, Cho‘lpon ham inqiloblar davrida yashadi. Fikrat 1908-yilgi Yosh turklar inqilobiga, Cho‘lpon Oktyabr inqilobiga katta umid bog‘ladi. Ammo ikki inqilob ham xalq ishonchini oqlamadi. Bu hodisalar ikki shoir ijodida ham majoziy va tamsiliy tasvirlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi: [6:12]

Tavfiq Fikratda:  
Goh yoding tig‘ kabi zehnimni tilar,  
Xoin ishq qalbimga urar panjalar,



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Ruhimda ochilar oppoq g‘unchalar  
Dudog‘ing mushtog‘i bo‘lgan chog‘imda.

Cho‘lponda:

Ko‘ngildagi muhabbatning uchquning  
Xayolimning bir burchida berkitdim.  
Ul uchqunning kuchligidan siyamda  
Hech tuzalmas, og‘ir yara bor etdim.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, Cho‘lponning turk she‘riyatiga nisbatan munosabatiga ko‘pincha biryoqlama baho berildi. Masalan, shoirning ikkinchi she‘riy majmuasi “Uyg‘onish” xususida so‘z yuritgan Miyon Buzruk Solihov: “To‘plamda panturkistlarning usmonlilashtirish meto‘diga xizmat qilish ham bor, shoir ba‘zi ayrim she‘rlarida ohang, vazn, uslub jihatlarida Turkiyaning turkchi shoirlaridan ta‘sir olg‘onini sezdirmaq bilan birga xolis usmonlicha she‘rlar yozib, o‘rnak bo‘lishni ham unutmaydir...” [14:27] deydi.

Munaqqid Abdurahmon Sa‘diy ta‘biri bilan aytganda, Cho‘lpon XX asr boshlari o‘zbek she‘riyatida ramzchilik oqimini boshlab bergan shoirdir. Ayniqsa, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ramziy timsollarda badiiy ifodalash uchun Cho‘lpon Tavfiq Fikratdan ko‘p o‘rgangan:

Yana qor! Oq kafan o‘raldi yana,  
Yana ko‘k quydi parlarini.  
Qarg‘aning tillari buraldi yana,  
Yana qish chorladi “nafar”larini... [12:51]

Shuningdek, Cho‘lpon uchun faqatgina tabiat sinoatlari emas, balki inson ichki dunyosini o‘ylash yanada qiziqarli edi. Cho‘lpon lirikasining samimiyatini ta‘minlovchi omil– tilining shiraligi. Cho‘lpon uchun orzular dunyosi haqiqiy hayotdan ham go‘zal:

Xayol... xayol... yolg‘iz xayol go‘zaldir,  
Haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqaman.  
Xayoldagi yulduzlarkim, amaldir,  
Olovimni alar uchun yoqaman.  
Go‘zal xayol, kel boshimda gul o‘ynat,  
Menim isrik tilagimni erkalat!.. [13:142]

Shoir bu she‘rni yaratganda tasavvur dunyosining keng ichki maydonlari, uning ko‘rinmas chegaralarini nazarda tutgan bo‘lsa ajabmas. Bunday yangiliklar san‘at va estetik fikrlashda ilk marta bizning adabiyotimizda namoyon bo‘ldi. Nozik his-tuyg‘ularga ega bo‘lgan shoir sifatida Cho‘lpon she‘riyatidagi his-tuyg‘u kuchini ancha oshirdi...

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho‘lpon. “Ulug‘ hindiy”. “Maorif va o‘qitg‘uvchi”-1925-yil. 7-8 –sonlar.
2. Boltaboyev H. Modernizm va yangi o‘zbek she‘riyati. 2-maqola // Jahon adabiyoti. 2007, №2.
3. Fitrat. She‘r va shoirlig. //Ishtirokiyun.-1919. 24-25-oktyabr.
4. Cho‘lpon. Tarixning zararlik takarruri. Adabiyot nadir. T. “Cho‘lpon” nashriyoti. 1994.
5. H.Boltaboyev. Fitrat va jadidchilik. Toshkent–2007.
6. N.Yo‘ldoshev. Cho‘lpon va turk she‘riyati. Jahon adabiyoti” jurnali, 2005-yil, 12-son.
7. Cho‘lpon. Adabiyot nadir. T., “Cho‘lpon” nashriyoti. 1994.
8. V.Mahmud. Bu kungi she‘rlarimiz va san‘atkorlarimiz. Tanlangan asarlar. Toshkent-2007.
9. B.Qosimov. Izlay-izlay topganim. Toshkent. 1993. 80-bet.
10. N.Yo‘ldoshev. Cho‘lpon va turk she‘riyati. Jahon adabiyoti” jurnali, 2005-yil, 12-son.
11. Abdulhamid Sulaymon. Marhum Tavfiq Fikrat.//Ishtirokiyun. 1920. 10-yanvar.
12. A.Cho‘lpon. Go‘zal turkiston. She‘rlar. Nashrga tayyorlovchi: B.Do‘stqorayev. Toshkent-1997.
13. Cho‘lpon. Asarlar. Uch jildlik. Birinchi jild. Toshkent-1994 y
14. Miyon Buzruk Solihov. O‘zbek adabiyotida millatchilik ko‘rinishlari. Toshkent. 1933.
15. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. She‘rlar. Toshkent-2000.
16. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.